

O'QUVCHILAR IJODKORLIGINING BA'ZI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

T. Aliboyev – Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Texnologik ta'lif va tasviriyl san'at fanlari kafedrasi
katta o'qituvchisi. PhD.

Ne'matov B.A. - Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Rezume

Maqolada o'quvchilar ijodkorligining ba'zi o'ziga xos psixologik xususiyatlari bayon qilinadi.

Tayanch so'zlar: ijodkorlik, emotsiонал, analitik, abstrakt, sintez, ideal, ob'ekt

Резюме


В статье излагаются некоторые мысли своеобразные психологические особенности учеников в творческих работах.

Ключевые слова: творчество, эмотсионал, аналитик, абстракт, синтез, идеал, объект

O'quvchilarning ijodkorlik faoliyatga ijobiy munosabatini shakllantirish bugungi kunda pedagogika tizimi oldida turgan muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ana shunday munosabatlarsiz zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqur va mustahkam o'rganishni tasavvur qilish qiyin.

Oldin takidlaganidek, ijodkorlik jarayoni uslubiy tizim bo'lib, unda o'rganuvchi va o'rganuvchilar o'zaro bog'liq munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun ham bu faoliyatning qat'iy va aniq ko'rsatishi asosan ikkala tomon (o'qituvchi va o'quvchi) ning ham baravar maqsadga yo'naltirilgan, ongli va faol ijodkorlik ishlariga bog'liq.

O'qituvchiga ijodkorlik faoliyati jarayonini to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etishi uchun faqat tegishli fanlar asoslari nazariyasidan va ularni o'qitish uslublaridan yaxshi bilimlar zarur bo'libgina qolmasdan ijodkorlik jarayoni va bilimlarni o'zlashtirishning umumiyl psixologik xususiyatlari (malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni, fikrlashni o'stirish) ni ham biliishi zarur.

Bu psixologik xususiyatlarga qo‘yidagilar kiradi**1-rasm. Shaxs psixologik rivojlanish xususiyatlari.**

Ijodkorlik faoliyatini tashkil etuvchi rahbar shaxs psixologik rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasini yaxshi bilishi muhim ahamiyatga ega.

Ba'zi xorijiy psixologlar ijodkorlikning vazifasi insonning tug'ma «fe'l atvorini» aniqlashdan hamda uni kuchaytirishdan iborat deb hisoblaydilar. (Разумовский В.Г. Некоторые тенденции изменения преподавания физики в Великобритании – физика в школе, 1975, №2) va ijodkor tarbiyasi ular shaxsning stixiyali rivojlanishi ketidan beruvchi passiv jarayon deb qaraydilar.

Boshqa psixologlar esa, xususan Kovalev A.G. (Ковалев А.Г. Психология личности–Москва. Просвещение, 11970, 268 бет) ijodkor shaxsning psixologik xususiyati haqida uni muhit (keng ma'noda) hamda o'qitish, o'rganish va tarbiya ta'sirining mahsulotidan iborat deb hisoblaydi va insonning psixologik xususiyatlari ko'p jihatdan hayot vaqtida shakllanishini tan olishga asoslanadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rolni boshqaruvchi, uning tajribasi va faoliyat sharoitlari o'ynaydi deb ta'kidlab, ijodkor shaxsining rivojlanishida maxsus rolni «jamiat talablariga javob beradigan, shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish maqsadida katta avlodning kichik avlodga ongli, maqsad sari yo'naltirilgan ta'sir jarayoni sifatidagi o'qitish va tarbiya o'ynaydi» deb izohlaydi.

Sobiq sovet psixologiyasining asoschisi L.S.Vigostkiy (...) ijodkorlikda o'qitish va tarbiyaning boshqaruvchi rolini birinchi bo'lib ilgari surgan, uningcha: «*O'qitish rivojlanishdan oldin boradi. O'qitmasdan turib to'liq rivojlanish bo'lishi mumkin*

emas». O'quvchilar ijodkorlik faoliyatida shaxs aqliy rivojlanishning mezoni sifatida psixologlar quyidagilarni e'tirof etadilar:

- 1) materiallarni o'zlashtirish tezligi yoki qabul qilish surati;
- 2) mulohazalar soni bilan aniqlanadigan fikrlashning siqiqligi, bular asosida o'quvchilar o'zlariga yangi qonuniyatlarni ajratib oladilar;
- 3) analitik-sintetik faoliyatning darajasi;
- 4) bir ob'ektni o'rganish asosida boshqa ob'ektda shakllantirilgan aqliy faoliyatni shakllantirish usullari;
- 5) olingan bilimlarni mustaqil tizimlashtirish va umumlashtirishni bilish.

O'quvchilar ijodkorlik faoliyatida ishni tashkillashtirish jarayonining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Bu birinchi psixologik xususiyat - avvalo ijodkorlik masalasining mazmuni bilan aniqlanadi. Ijodkorlik ob'ektiga kirib borish o'quvchilardan abstraktlash, ideal modellarni qurish bir ko'rinishdagi abstraktlashdan boshqasiga o'tishni amalga oshirish va boshqa shu singari xayoliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Bularning barchasi ijodiy fikrlashni xarakterlaydi.

Ikkinchi psixologik xususiyati - o'qitish jarayonidagi nisbatan ko'proq modellar, natural ko'rgazmali qurilmalar va turli ko'rinishdagi belgilar (formula, grafik ...) dan ham foydalaniladi va o'quvchilardan belgili tasvir, ishchi g'oyalardan real echim va ob'ektlarga (ko'z oldiga keltirish) va ba'zan esa aksincha-real ob'ektlarni idrok qilishdan ideal modellarni tuzishga va ularning belgili tasvirlariga o'tishni amalga oshirish talab etiladi.

Uchinchi psixologik xususiyati - uning tajribalar, sinovlar, tekshirishlar qilib ko'rishdan foydalanish, o'quvchilarning kuzatishini tashkil qilish, ularning ijodkorlik ishlarini mustaqil bajarish bilan bog'liq yuqori hissiyotliligidir.

Yuqorida ko'rsatilgan psixologik xususiyatlar turli murakkablikdagi ijodkorlik masalalarining o'quvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlashda, o'quvchilarda mos xayoliy operatsiyalar –(tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, umumiylashtirish, xususiy va maxsus jihatlarni aniqlash, abstraktlash, umumlashtirish, sintez qilish va boshqalar)ni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. 1997 yil, 29-avgust.
2. J.G'.Yuldashev, Sh.Po'latov, Ta'lifda innovasion texnologiya asoslarini tashkil etish. Toshkent. 2011 y. 73 b.
3. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabat psixologiyasi T. 1997 y.
4. С.А.Дзенушкайте. Педагогический поиск: опыт проблемы находки. Москва, «Педагогика» 1987.

5. V.G.Razumovskiy. Fizika o‘qitish metodikasi asoslari. 1984, “O‘qituvchi”, 202-bet.
6. С.А.Рубинштейн Основы общей психологии. Учпедгиз, 1946, 642-бет).
7. Davletshin M.G «Zamonaviy maktab o‘qituvchisi». Т.1998у.
8. E.Goziev, K.Mamedov. «Kasb psixologiyasi», Toshkent, UMU, 2003у.
9. X.Tog‘aev, U.Qosimov, T.Ismoilov. Ijodkorlik tarixiy ijtimoiy taraqqiyot maxsuli sifatida. «Kadrlar tayyorlash sifati»: muammolari va echimlari» Maxsus to‘plami. «O‘AJBNT» markazi, Toshkent 2003 yil, 70-83 betlar.